

YANGI O'ZBEKISTONNING - YANGI KONSTITUTSIYASI

Tursunxo'jayeva Maxfuza Sultonxo'ja qizi

Andijon davlat Pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich 202-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O'zbekistonning yangilanyotgan konstitutsiyasi uning qabul qilinishi, yurtimizda olib borilyotgan huquqiy islohatlar hususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquq burchlarni yangilanyotgan konstitutsiyada mustahkamlanishi qonunchiligidan aks etishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Demokratiya, konstitutsiya, huquq, shaxs, tenglik,adolat, qonuniylik.

KIRISH

Yangilanayotgan konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari umuman yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratishi lozim

XXI asrda dunyoning 90 ga yaqin davlatida konstitutsiyaviy islohatlar muvofaqiyqtli o'tkazildi. 57 ta davlatda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Shu jumladan O'zbekistonda ham konstitutsiyon islohotlar o'tkazildi. Yangi O'zbekiston yangi qadamlar, yangi g'oyalar va yangi konstitutsiya. Bu islohotlarning barchasi O'zbekistonni yana bir karra dunyoga tanitadi desak adashmagan bo'lar edik. Yangi Konstitutsiyaga nega ehtiyoj tug'ildi degan savol tug'ilishi shubhasizdir. Mustaqil O'zbekistonning birinchi konstitutsiyasi yangi zomon talablariga javob bermay qoldimi shu kabi savollar xalqni o'ylantirishi mumkin. Shuni aytib o'tish joizki o'tgan qisqa davr mobaynida jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy – iqtisodiy madaniy va ma'rifiy qiyofasi tubdan o'zgardi. Insonlarning yashash jarayoni boshqacha tarzda amalga oshadigan bo'ldi. Insoniyat ilmiy texnologik davrga qadam qo'ydi. Insonlarning ehtiyojidan kelib chiqan holda yangi texnika va texnologiyalar joriy qilinmoqda. Oldingi davorda biz ishlatayotgan telefon, rangli telivizorlar, kir yuvish mashinalari, idish yuvadigan moslamalar umuman yo'q edi. Buvi va bobolarimiz qozon o'choqda ovqat pishirib, qo'lda kir yuvishgan. Bugun esa endilikda jahonda keskin transformatsiya jarayonlari va raqobat kundan – kun kuchayib bormoqda. Shunday rivojlangan zamonda uning talablariga munosib javob bera oladigan konstitutsiyaga xalqning ehtiyoji tug'ildi. Zero har qanday Konstitutsiya hayotiy bo'lishi lozim, qolaversa mamlakatning ijtimoiy va huquqiy voqeliklariga

xalqning orzu umidlarini va kelajak istiqboliga xususan jahon talablariga mos bo‘lishi kerak. Xalqimizning bir necha yillik o‘y hayollarini o‘zida mujassam etmog‘i shuningdek xalqning manfaatlarini o‘ylangan holda ularning barkamol istiqboli kelajak orzularini aks ettirishi kerak. 2022 – yilning may oyi xalqimizning qalbida chuqur joy oladi desak adashgan bo‘lar edik, chunki 17- may kuni mamlakatimiz parlamentida eng katta o‘ringa ega bo‘lgan ikki siyosiy partiya Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati, O‘zbekiston Liberal – demokratik partiyasi va Milliy tiklanish demokratik partiyasi fraksiyalari tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish tashabbusini ilgari surishga qaratilgan qo‘shma yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda 83 ta senatordan 80 nafari qarorni qo‘llab quvvatladi, 1 nafari betaraf qoldi, 2 nafari esa ovoz bermadi. Qarorga ko‘ra 30-aprel kuni referendum o‘tkazilishi belgilandi. Referendum har tomonlama ochiq oshkora shafof o‘tishini taminlash, xalqning ishonchini oqlash, ularning fikrlarini o‘rganish, ularni referundumda faol bo‘lishga davad qilish, xalqimizning huquqiy ongi va saviyasini oshirish bugungi kunning dolzarb masalisi bo‘lib turibti. Yurtimizda bugungi kunda insonlarning huquqiy ongini oshirishda ko‘pgina islohatlar amalga oshirilmoqda misol uchun maktablarimizda huquq fanining bolalarga o‘qitilishi, bolalarda o‘z menini oshirish uchun olib borilayotgan metodlar radio, telivizorlarda turli xil eshittirishlarning muntazam qo‘yib borilishi, yo‘larda kanstitutsiyamizdagagi moddalar aks ettirilgan barnerlarning peshtaxtalarga ogohlikka qolaversa insonlarni o‘z huquqlarining poymol bo‘lishini oldini olish uchun ilib qo‘yilgaan ko‘pgina malumotlar shular jumlasidan. Shuni anglab yetmog‘imiz lozimki har bir insonni ongi tafakkurini shakillantirmas ekanmiz o‘zini menini o‘zini fikrini boshqalarga bemalolo o‘tkazolmas ekan birovlarning nima deyishiyu boshqaning izidan ergashib bilib bilmasdan uning fikrini maqullab tushunar tushunmas qarsak chal desa qarsak chalaverar ekan bu yurtning aholisi ko‘karmaydi rivojlanmaydi kelajakka bir qadam ham tashlolmaydi. Birovlarga qaram bo‘lib yashayveradi.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Shu sababli referendumga qadar xalqning fikrini bilish maqsadida turli xil so‘rovnomalalar o‘tkazildi. So‘rovnomalarda 56 % erkaklar 40% ayollar o‘z fikrlarini bildirishgan. Bizga malumki bir davirlarda butun boshli oila uchun bir oila boshi chiqib hamma uchun ovoz bergen qolaversa ularning fikri inobatga olinmagan fikirlari umumlashgan bo‘lib oila boshi va undagi a’zolar bir narsaga ovoz berishgan yoki maqullahshgan. Endilikda esa yurtoshlarimizning huquqiy bilimi oshib har bir shahs mustaqil ekanligi o‘zining o‘y qarashlari dunyoqarashi boshqa bo‘lib bir –biridan tubdan farq qilishini tushunib yetishdi. Ayollarning ham siyosiy faoliyatga kirib borishi taqsinga sazovordir. O‘zining qarashlarini bemalol qo‘rmasdan erkin bayon qila olishi o‘zini jamiyatning bir bo‘lagi sifatida namoyon eta olishi bu jamiyat qolaversa

yurtimizning porloq kelajagi uchun asos bo‘lib hizmat qiladi. Zero ayollari dono bo‘lgan yurtning farzandlari vaqtlar o‘tib donishmand bo‘ladi. Konstitutsiyamizning yangilanayotgani e’lon qilinganidan so‘ng aholidan konstitutssiyadagi moddalarni o‘zgartirishga oid 48 ming 492 ta taklif va mulohazalar kelib tushdi. Ularning fikirlari huquqshunoslar tomonidan atroflicha o‘rganilib chiqildi va mqbwl variantlari kanstitutsiyamizga kiritildi aholining fikri inobatga olindi. Bejizga bu kanstitutsiya xalq kanstitutsiyasi deyilmagan chunki unda halqning fikirlari hayollari orzu umidlarini o‘zida mujassam etgan. Bundan tashqari referendumga oid materiallar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan 270 mln martta ko‘rilgan 122 mingdan ortiq izoh qoldirilgan .Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar ma’lumot yetkazishning eng qulay shuningdek eng tezkor variantiga aylanmoqda. Lekin shuni aytib o‘tish joizki radio, telivizor vaholanki turli ijtimoiy tarmoqlarning barchasini maqsadi bir aholiga sifatlari aniq tezkor ma’lumotlarni yetkazish. Xalqimizga yangiliklarni bat afsil yetkazish maqsadida davlat radiokanallarida 2151 ta, nodavlat radiokanallarda 1947 ta jami 4098 ta informatsion va maxsus eshittirishlar tashkil qilindi, aholidan kelib tushgan savollarga “Call markazlar” tashkil qilinib savollariga bat afsil javob berildi.

Yangi Konsitutsiya inson – jamiyat -davlat tamoyili asosida tashkil qilindi. Xususan konsitutsiyada demokratik davlat qurish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni xotin-qizlar, yoshlar va aholinining boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari erkinliklarini, huquqlarini va qonuniy manfatlarini ta’minalash, ijtimoiy davlat qurish, xususiy mulkni tadbirkorlikni qo‘llab- quvvatlashga doir ko‘pgina moddalar tuzildi va o‘zgartirish qo‘srimchalar kiritildi. Misol uchun 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan birinchi konsitutsiyamizning 1- moddasiga ko‘ra “O‘zbekiston – suvren demokratik respublika. Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi”¹. Yangi Konstitutsiyaga ko‘ra “O‘zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo‘lgan suvren demokratik xuquqiy ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning “O‘zbekiston respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma’noni anglatadi. Ushbu moddada davlatimizning dunyoviy davlat ekanligi aniq takidlab o‘tilgan bo‘lib, shu bilan birgalikda ijtimoiy huquqiy davlat deb aytib o‘tilgan. Ijtimoiy huquqiy davlat bu – demokratik tamoyillar asosida qabul qilingan qonunlar oldida barcha teng bo‘lgan va hech kim qonunlardan ustun turmaydigan davlatdir². Huquqiy davlatda eng oliy qadriyat inson hisoblanadi. Demokratiya huquqiy davlatning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Demokratiya qadimgi Yunonistonda paydo bo‘lgan bo‘lib halq hokimiyati degan ma’noni bildiradi shundan kelib chiqib xalq boshqaruviga asoslangan faqatgina hokimiyat tepasida turuvchilarning fikirlari

² Ijtimoiy davlat — inson huquq va manfaatlari ko‘zgusi | "Adolat" SDP

inobatga olinib halqning fikri yerda qolib ketadigan jamiyat emas hamma bir bo‘lgan huquqiy jihatdan, ijtimoiy kelib chiqishidan, jamiyatda tutgan o‘rni yoki daraja mavqeyidan qat’iy nazar hamma teng huquqga ega bo‘lgan jamiyatdir. Eng yahshi sarmoya ta’limga kiritilgan sarmoyadir. Shunday ekan demokratik davlatda siyosatni qolaversa zamon bilan hamnafas bo‘lgan yoshlarni tarbiyasi qolaversa ta’limi uchun sharoit yaratish, ularga yanada imkoniyatlar yaratish maqsadida Yangi Konsitutsiyamizning 50, 51, 52 -moddalari tuzildi. Shuni eslatib o‘tishimiz lozimki birinchi konstitutsiyamizning 41- moddasi talimga qaratilgan edi unga ko‘ra “Har kim bilim olish huquqiga ega bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi” deb belgilangan. Yangi konstitutsiyaning 50 – moddasiga ko‘ra “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzlusiz ta’lim tizimi uning har xil turlari va shakillari davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratdi. Davlat bepul umumiy o‘rtalama ta’lim va boshlang‘ich professional maktabgacha ta’lim va tarbiya umumiy o‘rtalama ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alovida ta’lim extiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inkuliziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi. Ushbu moddada ta’limning bepul ekanligi takidlاب o‘tilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha yoshida bo‘lgan bolalarni katta qismini jalb qilishga qaratilgan bo‘lib bularning barchasi davlat nazoratida ekanligi aytib o‘tilgan. Yana bir yangilik ehtiyoji cheklangan bolalar uchun inkuliziv ta’lim ham joriy qilindi. Inkuliziv ta’lim davlat siyosati bo‘lib imkoniyati cheklangan, maxsus ta’limga muhtoj, ayrim sabablarga ko‘ra namoyon bo‘lib qolgan bolalarni o‘z tengqurlari kabi talimga tadbiq qilishdan iborat bo‘lgan ta’lim sanaladi. UNICEF inklyuziv ta’lim O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Ularni oliy ta’limga ham jalb qilish borasida ham kerakli islohotlar amalga oshirilmoqda. Inkuliziv ta’lim nogironligi mavjud yoki biroz nuqsoni bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Ularni o‘z tengqurlaridan ajralmagan holda ta’limga jalb qilish ularni ijtimoiy hayotga olib kirish ularni o‘z o‘rinlarini topishga yordam berishga mo‘jallangan. Yangi konstitutsiyamiz ning 51 – moddasida “Fuqarolar davlat ta’lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat xisobidan oliy ma’lumot olishga xaqli. Oliy talim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega”. Bu moddamizga ko‘ra oliy ta’lim muassalariga akademik erkinlik berilishi qolaversa o‘zini o‘zi moliyalashtirishi ta’limni sifatini oshishi shuningdek ta’limning raqobatdoshligini oshirishga hizmat qiladi. Turli xil tadqiqot ishlarini amalga oshirish xuquqiga egaligi oliy ta’lim muassalarining rivojlanishiga, turli kashfiyotlarni amalga oshirishga turki bo‘ladi. Yangi kashfiyotlarni amalga oshishi yurtimizning kelajagi uchun poydevor bo‘ladi. Davlat va hususiy institutlar yoki maktablarning ko‘payishi ular o‘rtasida raqobatning oshishiga sababchi bo‘ladi bilamizki raqobat bor joyda

albatta o'sish va rivojlanish bo'lishi shubhasizdir. Dunyodagi ko'pgina rivojlangan davlatlarda institutlar va universitetlarning ko'pchiligi xususiy hisoblanadi yurtimizda ham rivojlangan davlatlardagi kabi sharoitlarning paydo bo'layotgani biz kelajak avlodni quvontiradi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston demokratik prinsiplar inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan prinsip va normalarga asoslangan bosh maqsadi xalq uchun erkin va farovon hamda obod hayot yaratib berishdan iborat bo'lган davlatga aylanmoqda. Shuning uchun yangi konstitutsiyamiz ham yangicha tamoyil yangi g'oyalar bilan yovrilgandir. Yangi O'zbekistonning yangi konstitutsiyasi "inson qadri uchun" g'oyasini hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo'lган. Bosh maqsadi insonni har nedan ustunligi uning qadr-qimmati sha'ni obro'si balandligini ko'rsatadi. "Inson-jamiyat-davlat" degan yondashuv konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singib amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishimiz zarur ya'ni insoning qadr -qimmati sha'ni va g'ururini bundan buyon birinchi o'rinda turmog'i lozim. Bu yangi konstitutsiyamizning 52 – moddasida ham ko'rishimiz mumkin.

"O'zbekiston Respublikasida o'qtuvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom barkamol avlodni shakllantirish xamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash xamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qtuvchilarning sha'ni va qadr - qimmatini ximoyaga qilish ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Bu moddada o'qtuvchi shaxsini baland martaba va darajalarga ko'tarilayotgan ko'zga tashlanadi. Xalqga bilim beruvchi va shu bilan birgalikda yoshlarga ta'lim tarbiya beradigan ularni kelajakda yetuk kadir bo'lishida o'z hissasini qo'shayotgani taqsinga sazovordir. Ularni jamiyatda odamlar orasida nufuzini oshirish ularga jadidlarning avlodni sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Ularni malakalarni oshirish, kasbiy rivojlanishiga yordam berish, salohiyatini oshirishda davlat g'amxo'rlik qilishi ham takidlab o'tadi. Qachonki biz o'qtuvchini obro'sini oshirar ekanmiz shundagina jamiyatimizda o'sish va rivojlanish bo'ladi. Endilikda ustozlarni dala mehnatiga safarbar qilish yo'q, hasharlar ishlariga ularni jalb qilish ham tugatildi. Bu ham ustozlarga bo'lган hurmatni oshirdi. Oddiy dehqon insondan o'qtuvchining farq qilishi malakali pedagog bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun o'qiganligi dalada ishchi bo'lib ishlash uchun emasligi kun kelib o'z isbotini topdi. Yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi butun dunyo nigohini O'zbekistonga qaratdi desak adashmagan bo'lar edik. Referendumning shaffof va ochiq oshkora bo'lганligi qolaversa chet ellarda yurgan fuqorolarimizning referendumga jalb qilinishi ular uchun maxsus saylov uchaskalari tashkil qilinishi, bularning barchasi O'zbekistonda har bir fuqoroning fikri muhim ekanligi uning jamiyatda o'z o'rni va o'z so'zi borligiga u hoh ayol hoh erkak bo'lsin mustaqil ovoz

bera olishi muhim ahamiyatga ega. Dunyoning eng rivojlangan davlatlari kuchli siyosatchilar, huquqshunoslar O‘zbekistonda referendum qanchalik muhim ekanligi O‘zbek xalqi ertangi kuni va istiqboliga befarq emasligini ko‘rishdi. Referendumda biz talabalar ham faol qatnashdik zero bugungi qo‘ygan qadamimiz kelajagimiz uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi albatta.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Yangi O‘zbekiston yangicha qarashlar bilan yaratilgan konstitutsiya avvalo xalqning fkir mulohazalari asosida yaratilgani ya’ni konstitutsiyaning muallifi o‘zbek halqining o‘zi ekanligi taqsinga sazovordir. Barcha sohalarni: ta’lim, tarbiya, san’at, sport, fan, madaniyat kabi sohalarga birdek e’tibor berilayotganligiga dalolatdir. Shunday ekan barcha yosh-u qari birdek bunday siyosiy jarayonga befarq bo‘lmashligimiz lozim chunki o‘z orzu umidlar bilan qurilgan mustahkam qo‘rg‘onimizda o‘zimiz yashaymiz o‘zgalar emas!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyundagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni / <https://lex.uz/docs/-4872355>
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2018.
3. Ijtimoiy davlat — inson huquq va manfaatlari ko‘zgusi | "Adolat" SDP